

**ZAMONAVIY TA'LIMNING ASOSIY MEZONI SIFATIDA
TALABALARDA SOG'LOM DINIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH**

*Atakulova Nargizaxon Alijonovna
Andijon davlat universiteti,
3-kurs doktoranti(DSc)*

Аннотация: Maqolada sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, vositalari, nazariy va metodologik asoslari o'rganilgan. Sharq xalqlariga xos bo'lgan diniy dunyoqarashning yo'nalishlari, asoslari, g'oyalari, tamoyillari va ta'limotlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tasavvuf ta'limoti nomoyondalari va ular targ'ib etgan g'oyalarning ma'naviy va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Birinchi hamda ikkinchi Renessans davrida diniy dunyoqarashni rivojlanib borish jarayonlari tahlil qilingan

Калит so'zlar: dunyoqarash, sog'lom diniy dunyoqarash, shaxs kamoloti, nazariy bilish, din, tasavvuf ta'limoti, aqliy va hissiy bilish, islomiy asos, ezgu g'oyalar, yaxshi amal

Аннотация: В статье исследуются педагогические условия, средства, теоретические и методологические основы формирования и развития здорового религиозного мировоззрения. Даны сведения о направлениях, основах, идеях, принципах и учениях религиозного мировоззрения, характерных для народов Востока. Также были проанализированы духовно-педагогические возможности деятелей мистического учения и идей, которые они продвигали, которые имели важное значение для формирования здорового религиозного мировоззрения. Проанализированы процессы развития религиозного мировоззрения в период первого и второго Возрождения (Ренессанса)

Ключевые слова: мировоззрение, здоровое религиозное мировоззрение, созревание личности, теоретическое познание, религия, мистическое учение, умственное и эмоциональное познание, исламская основа, благородные идеи, добрые дела

Annotation: The article examines the pedagogical conditions, means, theoretical and methodological foundations for the formation and development of a healthy religious worldview. Information is given about the directions, foundations, ideas, principles and teachings of the religious worldview characteristic of the peoples of the East. The spiritual and pedagogical capabilities of the figures of mystical teaching and the ideas that they promoted, which were important for the formation of a healthy religious worldview, were also analyzed. The processes of development of the religious worldview during the period of the first and second Renaissance (Renaissance) are analyzed

Key words: worldview, healthy religious worldview, personality maturation, theoretical knowledge, religion, mystical teaching, mental and emotional knowledge, Islamic basis, noble ideas, good deeds

Bugungi kunda shaxs ongini egallashning turli usullaridan foydalanilmoqda. Islom dini insonlarni bilim olish, ongli ravishda faoliyat ko'rsatish, o'z xatti harakatlarini nazorat qilish, uning mohiyatini tushungan holda e'tiqodiy qarashlarini tizimlashtirishga da'vat qiladi. Bugungi kunda talabalarga dinniy mazmun mohiyati, bunyodkorlikka undovchi

xususiyatlarni tushuntirish orqali ularda sog‘lom diniy dunyoqarashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari lozim.

Islom dinida ezgu amallarni bajarishga alohida e‘tibor qaratiladi. Masalan, saxovatlik, saxiylikka undash, topgan halol mablag‘idan zakot berish, doimiy tarzda ehson qilish, zaif va yordamga muhtojlarni qo‘llab quvvatlash ezgu amallar bo‘lib mazkur amallarni bajarish har bir insonda qoniqish hissini vujudga keltiradi. Sog‘lom diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlar bunday amallar doimiy ravishda bajarishni farz deb biladi.

Dunyoviy davlat hisoblangan O‘zbekiston jamiyatida Islom dinining ahamiyati juda yuqori. Din insonlarni noto‘g‘ri xatti harakatlardan saqlanishga da‘vat etadi. Diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan har bir shaxs o‘z axloqini nazorat qilish layoqatiga ega bo‘ladi. Islom dini maqsadga muvofiq harakatlarimiz, xulq-atvorimiz, axloq-odobimiz, shaxslararo munosabatlarimizning qanday bo‘lishi lozimligini o‘zida mujassamlashtirgan ulkan tarbiya manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda talabalarning diniy dunyoqarashini boyitish, ularda sog‘lom diniy tafakkurni shakllantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki talabalar salbiy illatlarga tez beriluvchi, shunday qarashga ega bo‘lgan insonlarga ko‘proq ergashuvchi ijtimoiy qatlamdir. Ularda aksariyat hollarda norozilik kayfiyati ko‘proq bo‘ladi. Bu ko‘proq ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli axborotlarning salbiy ta’siri bilan bog‘liq. Salbiy illatlarga tez beriluvchi talabalar jamiyat hayotida kechayotgan bunyodkorlik va pozitiv harakatlarni marginal madaniyat ta’sirida sezmay qolayaptilar. Bunday talabalarda negbinlik, ezgu amallarni bajarish, xayrixohlik kabi insoniy sifatlarning jadal tarzda shakllanishida diniy dunyoqarashning ahamiyati ulkan. Ikkinchi tomondan salbiy dunyoqarashga ega bo‘lgan talabalar ommaviy madaniyat ta’siriga berilib ko‘plab tengdoshlarini o‘zlariga ergashtirish maqsadida da‘vat qilmoqdalar. Ko‘plab yoshlarga bunday tashviqotlar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ularda qasoskorlik, jangarilik, salbiy illatlarni ilg‘ash kabilar namoyon bo‘lmoqda. Buning natijasida ularning safi kengaymoqda. Ma’lumki o‘zbek xalqi Islom diniga e‘tiqod qiladi. Islomiy qonun qoidalarga ko‘ra ezgu amallarni targ‘ib qilish sunnat hisoblanadi. Mazkur e‘tiqodga ko‘ra jamiyat a’zolarining osoyishtaligi, tinchlikparvarlik, jamoa a’zolarining manfaati, salomatligiga alohida ahamiyat beriladi.

Islom dini dunyovilikni ham ulug‘lagan. Chunki dunyoviy ishlar birinchi navbatda shaxs jamiyat davlat manfaatlariga mos kelishi lozim. Din ezgulikka asoslangan dunyoviy ishlar, harakatlarni har doim qo‘llab quvvatlaydi. Har bir ishning savobli jihatlari birinchi navbatda inson ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilganligidadir. Yuksak ma’naviyatli shaxs ezgu amallarni bajarishga moil bo‘ladi. Diniy qarashlar birinchi navbatda shaxsning dunyoqarashi va ma’naviyatini boyitadi. Din jamiyat a’zolarida, shu jumladan talabalarda ham insonparvarlik, tolerantlik, hamjihatlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. U yoshlarni halollik, poklik kabi fazilatlarni shakllantiruvchi qadriyatlar majmuidir. Shuning uchun ham dindan salbiy maqsadlardan foydalanish o‘zining g‘arazli maqsadalarini amalga oshirishda uni qurol qilish, sog‘lom dunyoqarash egasiga yoddir.

Bugungi kunda diniy va dunyoviy g‘oyalarni integratsiyalash zaruriyati kuchaymoqda. Bu islom niqobi ostida harakat qiladigan turli oqimlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishlariga zarba beradi. Bizning respublikamizda mustaqillik prinsipi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunlar bilan kafolatlangan. Biz dunyoviy demokratik mamlakat fuqarolarimiz. Mazkur mamlakatda Islom din ma’naviy-axloqiy vositasi

hisoblanadi. Asrlar davomida o‘zbek xalqi Islom dini g‘oyalariga amal qilib kelmoqda. Bunday qadriyatlar o‘zbek xalqining kundalik turmush tarzi, an’analari, urf-odatlarini, e’tiqodiy qarashlaridan mustahkam o‘rin olgan. O‘zbek xalqining urf-odatlarini va ko‘p asrlik an’analari, tarixiy madaniy yondashuvlari O‘zbekiston davlatchiligining huquqiy-me’yoriy asoslarida o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham ushbu me’yoriy-huquqiy manbalar barkamol shaxs ta’lim-tarbiyasida insoniy qadriyatlardan foydalanishga asos yaratadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridan tahsil olayotgan talaba yoshlarning intellektual ma’naviy kamoloti haqida o‘ylash sog‘lom diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan mutaxassislarini kamol toptirish davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Har qanday millat o‘zining ma’naviy ma’naviyati va madaniyati bilan qudratlidir. Oliy pedagogik ta’lim jarayoni professor o‘qituvchilar va talabalar faoliyatida hamkorlikni taqozo etadi. Bu jarayonda talabalarda kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan ma’naviy axloqiy ta’lim tarbiya modellari va mexanizmlarini qo‘llashni taqozo etadi. Mazkur jarayonda professor o‘qituvchilarning kasbiy mahorati muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxsning barkamollik darajasiga etishi uning ma’naviyati yuksalishini taqozo etadi. Buning uchun birinchi navbatda shunday ma’naviyatni shakllantirishning fundamental metodologik asoslarini yaratish talab qilinmoqda.

Talabalarni yuksak ma’naviyatli shaxs va mutaxassis sifatida kamol toptirishda ustoz-murabbiylar va ular tomonidan yaratiladigan sog‘lom ruhiy muhit muhim o‘rin egallaydi. Buning uchun talabalarda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladigan turli tadbirlar, targ‘ibotlarni amalga oshirishda e’tibor qaratiladigan holatlarni ham nazarda tutish lozim. Har bir professor o‘qituvchi ta’lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, talabalarni ma’naviy jihatdan yuksaltiradigan sog‘lom ijtimoiy pedagogik muhitni yaratishga mas’ul hisoblanadi. Tasavvuf ta’limotida barkamol shaxs tarbiyasi markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Chunki tasavvuf, ayniqsa naqshbandiya tariqati insonparvarlik tarbiyasining asosiy prinsiplari negizida qurilgan. Bugungi kunda ham naqshbandiya tariqati g‘oyalaridan talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirishda foydalanish zaruriyati mavjud.

Talabalarni barkamol inson sifatida shakllantirishda aqliy ruhiy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra eng oliy ilohiy sifatlar insonga beriladi. Islom dini ta’limotiga ko‘ra barkamollik insonning qalb go‘zalligi orqali nomiyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslangan. Aziziddin Nasafiy komil inson haqida fikr yuritib quyidagilarni ta’kidlagan edi. «...bilgilki, komil inson shunday insondurkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga etgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi ahloq va maorif».[2,8 b].

G‘azzoliy ham o‘z davrida ushbu fikrlarni rivojlantirib komil insonni quyidagicha sifatlagan edi: “inson o‘ziga yaxshilik qila oladigan saxovatli odamlarni, adolatli shoxlarni, shuningdek barcha go‘zal narsalar, nafosat olami, xushbo‘y, xushsurat narsalar ham sevimli bo‘lib, «sahiylar siymosida sahovatni, odillar siymosida adolatni, qahramonlar siymosida qahramonlikni sevadi”. Komil inson ham ham dunyoviy ham diniy ta’limotlarda birdey ta’riflangan. Ushbu g‘oya ilk Renessans davrida O‘rta Osiyoda yashab o‘tgan mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan.

Mutafakkir ajdodlarimiz haqiqiy, sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lgan insonni tarbiyalash uchun unga ilm ma’rifat berish zarurligini ta’kidlaganlar. Ular inson ko‘rish, tinglash, fikrlash orqali ilmlarni bilish, o‘zlashlarish layoqatiga ega bo‘lishini ta’kidlaganlar. Chunonchi Giyloniy “Sirrul asror” asarida inson uchun ilm ikkita qanot uchun zarur degan fikrni ilgari surgan. Uning inson kamolotida muhim o‘rin egallagan ilm botiniy, ya’ni diniy hamda zohiriy, ya’ni dunyoviy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki mutafakkir ajdodimiz diniy hamda dunyoviy bilimlarni integratsiyalashtirgan hoda yoshlarga taqdim etish orqali ularni sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish mumkin degan g‘oyani ilgari surgan.

Ilm egallagan, sog‘lom diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan yoshlar jaholatga qarshi kurasha olishiga insoniyat ko‘p asrlar davomida guvoh bo‘lib kelgan. Chunki ogohlikning manbai ilm, tafakkur hamda aqlidir. Yoshlarni ogohlik ruhida tarbiyalash g‘oyasi tasavvuf ta’limoti namoyondolarining pedagogik qarashlarida ustuvor o‘rin egallagan. Ularning fikricha sog‘lom diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan inson dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual jihatdan rivojlangan shaxsdir. Talaba yoshlarda diniy dunyovarashni shakllantirmasdan turib ularning ma’naviyatini boyitish mumkin emas. Talabalarning dunyoqarashiini rivojlantirishda birinchi navbatda umuminsoniy hamda islomiy madaniyat namunalariidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dunyo xalqlari tomonidan tan olingan islomiy madaniyat namunalari naqshbandiylik tariqati g‘oyalari shaxs ma’naviyatining asosi sifatida yoshlarni diniy ekstremizm, shovinizm, ommaviy madaniyat hurujlaridan himoya qiluvchi, ularning ma’naviyati va madaniyatini yuksaltiruvchi, barkamollikka undovchi bilimlar tizimini o‘zida mujassamlashtirgan. Shuning uchun ham naqshbandiylik tariqati g‘oyalari asosida talaba-yoshlarning diniy dunyoqarashini rivojlantirish taqozo qilinmoqda.

Naqshbandiya tariqati g‘oyalarini talabalarga o‘rgatmasdan turib, ularda ajdodlarimizning ma’naviy hayoti, ezgu amallari haqida aniq tasavur hosil qilish mumkin emas. Naqshbandiylik g‘oyalarini har tomonlama tahlil qilish, uning g‘oyalarini anglash natijasida o‘zbek xalqining o‘ziga xos ruhiyati, mentaliteti, mental tafakkuri, ma’naviy-madaniy qadriyatlarini talaba-yoshlar ongiga singdirish orqali ularda yot g‘oyalar va “ommaviy madaniyat”ga nisbatan immunitetni shakllantirish mumkin.

Naqshbandiylik tariqatida suhbat usuli yordamida yoshlarga bilim berish va tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilgan. Suhbat metodidan ustozlar yoshlarning dunyoqarashini rivojlantirishda samarali foydalanganlar. Chunki ushbu metod ilmiy haqiqatlarni shogirdlarga etkazishda ancha qulay bo‘lib, suhbat jarayonida insoniylik sifatlari, shaxslararo munosabatlar, do‘stlik, o‘zaro yaqinlik kabilar ham barqaror rivojlangan. Islom diniga oid g‘oyaviy qarashlar shogirdlar ongiga ustozlar tomonidan tizimli tarzda singdirilgan. Ustozlar madrasalarda islomiy bilimlar vositasida talabalarning dunyoqarashini rivojlantirib ularni tarbiyalashga muvaffaq bo‘lganlar. Talaba-yoshlar islomiy bilimlarni o‘rganishga katta qiziqish bilan intilganlar. Chunki mazkur bilimlar birinchi navbatda ularning ma’naviyati va madaniyatini rivojlantirib shaxs sifatida kamol topishlariga ko‘maklashgan.

Ko‘rinib turibdiki, diniy dunyoqarash tufayli ajdodlarimiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning bitmas-tuganmas asoslarini yaratganlar. Bugungi kunda butun insoniyat mazkur ma’rifatdan bahramand bo‘lib, o‘z tafakkurini boyitishga erishmoqda. Shuning uchun ham talaba-yoshlarda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirish orqali ularni kasbiy ijtimoiy etuklikka da’vat qilish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Aziziddin Nasafiy. Zubdatul-haqoyiq. N.Komilov tarjimasi. – Toshkent.: 2003. ”Kamalak”, - 289 b.
2. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. VI risola. – T., “Sharq”. – 122 b.
3. Boltayev A.A. Ibn Arabiyning “Risoi vujudiya” (“Borliq to‘g‘risida risola”) asari borliq yagonaligi to‘g‘risidagi asar. O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari, 2-(2023). 77–80. Izvlechenoot <https://www.research.uz/index.php/uzresearch/article/view/270>
4. Mavlono Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir: Falsafiy asar//Mas’ul muharrir N. Komil. Toshkent.: Yozuvchi, 1997 y. – 191 b.
5. Mavlono Rumi Jaloliddin. Ma’naviyi masnaviy. Birinchi kitob. Fors tilidan Jamol Kamol tarjimasi. Noshkent.: 2005. – 392 b.